

OLYI TA'LIM MUASSASALARIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARDAN  
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**Abdurahmanov Sohibjan Turdialiyevich**

*Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti.*

**Boltaboyev Foziljon Olimjon o'gli**

*1-bosqich magistranti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20215306>

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish va undan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Xususan, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar hamda boshqaruv mexanizmlarining o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilib, ularni qo'llash samaradorligini oshirish yo'llari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va global ta'lim makoniga integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности использования передового зарубежного опыта в высших учебных заведениях. Особое внимание уделяется инновационным подходам, педагогическим технологиям и механизмам управления, применяемым в образовательных системах развитых стран. Также анализируются теоретические и практические аспекты адаптации зарубежного опыта к национальной системе образования. Предлагаются пути повышения эффективности их внедрения. Результаты исследования направлены на повышение качества высшего образования, совершенствование системы подготовки кадров и ускорение процессов интеграции в мировое образовательное пространство.*

**Abstract:** *This article examines the issues of improving the effectiveness of using advanced foreign experience in higher education institutions. Particular attention is given to innovative approaches, pedagogical technologies, and management mechanisms applied in the education systems of developed countries. The study also analyzes the theoretical and practical aspects of adapting foreign experience to the national education system and proposes ways to enhance the*

*efficiency of its implementation. The results contribute to improving the quality of higher education, developing human resources, and accelerating integration into the global educational space.*

**Kalit so'zlar:** *oliy ta'lim, xorijiy tajriba, innovatsion yondashuv, pedagogik texnologiyalar, ta'lim sifati, integratsiya, modernizatsiya, boshqaruv mexanizmlari, xalqaro hamkorlik.*

**Ключевые слова:** *высшее образование, зарубежный опыт, инновационные подходы, педагогические технологии, качество образования, интеграция, модернизация, механизмы управления, международное сотрудничество.*

**Keywords:** *higher education, foreign experience, innovative approaches, pedagogical technologies, education quality, integration, modernization, management mechanisms, international cooperation.*

Hozirgi globallasuv sharoitida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, Yevropa davlatlarida keng qo'llanilayotgan kredit-modul tizimi oliy ta'lim samaradorligini oshirishda muhim instrument sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kredit-modul tizimi - bu ta'lim jarayonini modullarga ajratish va har bir modul bo'yicha talabanning o'zlashtirish darajasini kredit birliklari orqali baholashga asoslangan ta'lim modeli hisoblanadi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi talabanning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish, ta'lim jarayonini shaffoflashtirish va xalqaro ta'lim makoniga integratsiyani ta'minlashdan iborat.

Yevropa oliy ta'lim makonida kredit-modul tizimi, ayniqsa, Bolon'ya jarayoni doirasida shakllangan bo'lib, u talabalar harakatchanligini (akademik mobillik), ta'lim natijalarining taqqoslanuvchanligini va diplomlarning o'zaro tan olinishini ta'minlaydi. Ushbu tizimda 1 kredit, odatda, talabanning ma'lum bir vaqt davomida bajargan o'quv yuklamasi (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim) bilan belgilanadi.

Kredit-modul tizimining muhim afzalliklaridan biri - bu talaba markazli ta'lim printsiplariga asoslanishidir. Ya'ni, ta'lim jarayonida talabanning faolligi, mustaqil fikrlashi va shaxsiy rivojlanishiga ustuvor ahamiyat beriladi. Bu esa an'anaviy "o'qituvchi markazli" yondashuvdan farqli ravishda, talabani bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Shuningdek, mazkur tizim ta'lim sifatini baholashning aniq va shaffof mezonlarini joriy etish imkonini beradi. Har bir fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazoratlar, reyting tizimi hamda

jamg'ariluvchi ballar orqali talabaning bilim darajasi bosqichma-bosqich baholanadi. Bu esa sub'ektivlikni kamaytirish va adolatli baholashni ta'minlashga xizmat qiladi.

Kredit-modul tizimining o'ziga xos samaradorligi uning ta'lim jarayonini moslashuvchan, shaffof va natijaga yo'naltirilgan qilishida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston ta'limida kredit-modul tizimi samaradorlikni quyidagi asosiy jihatlarini ochib bermoqda.



### Rasm-1. Kredit modul tizimining O'zbekiston ta'limida samaradorlik ko'rsatkichlari.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda kredit-modul tizimini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon milliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda. Biroq amaliyot tahlillari shuni ko'rsatadiki, mazkur tizimni joriy etishda ayrim muammolar mavjud. Jumladan, professor-o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi, mustaqil ta'limni tashkil etish

mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi, baholash tizimida yagona yondashuvning yo'qligi kabi omillar samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Germaniya ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan dual ta'lim modeli samarali innovatsion yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda.

Dual ta'lim tizimi - bu ta'lim muassasasidagi nazariy o'qish bilan ishlab chiqarish korxonalaridagi amaliy faoliyatni uzviy bog'lagan holda tashkil etiladigan ta'lim shaklidir. Ushbu tizimda talabalar vaqtning ma'lum qismini oliy ta'lim muassasasida nazariy bilim olishga, qolgan qismini esa ish joyida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga sarflaydilar. Germaniyada bu tizim sanoat, xizmat ko'rsatish va texnik sohalarda yuqori samara bergan.

Dual ta'lim tizimining asosiy afzalligi - ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashidir. Bu esa talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlashga, ish muhitiga erta moslashishiga va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, talabalar o'qish jarayonidayoq ish tajribasiga ega bo'lib, bu ularning kelgusida ishga joylashish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda dual ta'lim tizimini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, professional ta'lim muassasalari va ayrim oliy ta'lim muassasalarida ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik asosida ushbu tizim elementlari tatbiq etilmoqda. Bu jarayon milliy iqtisodiyot uchun malakali, amaliyotga yaqin mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Biroq, dual ta'lim tizimini to'liq va samarali joriy etishda qator muammolar mavjud. Jumladan, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi, korxonalarining ta'lim jarayonidagi ishtiroki passivligi, o'quv dasturlarining ishlab chiqarish talablariga to'liq mos emasligi kabi omillar bu tizim samaradorligini cheklamoqda.




**Rasm-2. Dual ta'lim tizimi samaradorligi**

Hozirgi raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish jahon miqyosida ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Xususan, Janubiy Koreya va Yaponiya davlatlari raqamli ta'limni joriy etishda ilg'or tajribaga ega bo'lib, ushbu mamlakatlarda ta'lim jarayoni raqamlashtirish orqali sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgan.

Janubiy Koreyada ta'lim tizimida raqamli platformalar, sun'iy intellekt asosidagi ta'lim dasturlari va onlayn ta'lim muhitlari keng qo'llaniladi. Davlat tomonidan yaratilgan yagona raqamli ta'lim infratuzilmasi (masalan, milliy ta'lim axborot tizimlari) barcha ta'lim muassasalari uchun bir xil imkoniyatlarni ta'minlaydi. Bu esa ta'limda tenglik va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida individuallashtirilgan ta'lim (personalized learning) yo'lga qo'yilgan bo'lib, har bir talabning bilim darajasiga mos ta'lim berish imkoniyati yaratilgan.

Yaponiyada esa raqamli ta'lim davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, "GIGA School" dasturi doirasida barcha o'quvchilarni raqamli qurilmalar va internet bilan ta'minlash, ta'lim jarayonida raqamli resurslardan foydalanishni kengaytirish choralari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ta'lim ma'lumotlaridan (education data) foydalanish orqali ta'lim sifatini tahlil qilish va takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.



**Rasm-3. Geografiya ta'limida raqamli ta'lim texnologiyasini tadbiqu.**

Ushbu davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim texnologiyalari nafaqat ta'lim jarayonini avtomatlashtiradi, balki uning samaradorligini oshiradi, talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va ta'limni individuallashtirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasiga asoslangan raqamli ta'lim texnologiyalari geografiya sohasida ham bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. O'zbekiston geografiya ta'limida raqamli texnologiyalar to'liq emas, lekin faol rivojlanish bosqichida.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mutalipova M., Imomov M., To'raev A. «Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar» o'quv-uslubiy majmua. – T.: «Yangi avlod», 2016.
2. Muxtorov A. O'zbekistonda ta'limning rivojlanishi va halqaro tajribalar // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalari - 2014.- B. 2-.
3. Madreymova N. Ta'lim tizimida xorij tajribasini qo'llash ahamiyati. "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal. Volume 3. 2022.